

ТЕХНОЛОГИК ТА'ЛИМИДА О'QUV JARAYONI NATIJALARINI LABARATORIYA MASHG'ULOTLARIDA BAHOLASH USLUBI

M.M.Yusupov - PhD.

*A.Qodiriy nomidagi JDPU Texnologik ta'lim va
tasviriy san'at fanlari kafedrasida mudiri*

U.Yu.Jabborova – Texnologik ta'lim II bosqich magistranti

Annotasiya. Maqolada texnologik ta'limida o'quv jarayoni natijalarini baholash laboratoriya mashg'uloti misolida, baxolashning ishonchliligi, samaradorligi, mezonlari tahmini asosida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Nomoyish, tadqiqot, mezon, mulohaza, jadval, natija, jarayon, mashg'ulot, vazifa, jadval, uslub.

Texnologik talimida o'quv jarayoni natijalarini baholash usuli o'quvchilarning olgan nazariy va amaliy olgan bilim, ko'nikma, malakalarini amalda tasdiqlash bilan bog'liq bo'lib, u o'quvchilarning dasturiy ko'rsatmalarida talab qilinadigan natijasini tekshirib ko'rishga asoslangan tizim va asosan o'quvchilarning ijrochilik faoliyat orqali ta'limni rivojlantirishiga mo'jallangan va ta'lim berish davridan chiqqanda o'quvchilar bilimini, uddalashi va qadirlashi lozim bo'lgan ko'zlanayotgan pedagogik texnologiya natijalariga erishishini ta'minlaydi. Shu ma'noda, baholash usulda ta'limiy maqsadni amalga oshirish bo'yicha o'qituvchi va o'quvchi bilan hamkorlik faoliyatining murakkab jarayoni bo'lib hisoblanadi.

Bundan ko'rinadiki, o'quv jarayoni natijalarni baholash uslubini.

- Ta'lim berish maqsadiga mos kelishi;
- Usullarning natija beradiganini qo'llash;
- belgilangan mezoniy vazifalarni hal etish uchun qo'llashning mosligi va tejamkorligi imkoniyatlarini ta'minlash kerak.

O'quv jarayoni natijaviyligini baholash mezonlar:

- belgilangan natijaga erishish uchun uni qo'llashning mosligi va tejamkorligi;
- uni qo'llashning soddaligi va o'zlashtiruvchanligi;
- nafaqat eng yaxshi natijalarni ta'minlash balki ularga erishishning ishonchliligini ta'minlay olishi zarur.

Quyda laboratoriya mashg'ulotlarini baholash haqidagi mulohazalarni keltirishga urinamiz.

Barcha o'tkaziladigan laboratoriya mashg'ulotlarini ikkita kata guruh:

1. Namoyish qiluvchi.
2. Tadqiqot tavsifidagilarga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga taalluqli amaliy-laboratoriya ishlari o'quvchilarning olgan nazariy bilimlaridagi qonuniyatlarni tajriba amalda tasdiqlash bilan bog'liq bo'li, u o'quvchining nazariy mashg'ulotlarda o'zlashtirgan bilimlarini yoki taxminan u yoki bu jarayonning mohiyatini ochib berishga mo'ljallab ko'rsatmada talab qilingan aniqlanishi kerak bo'lgan natijani tekshirib ko'rishga asoslangan bo'ladi va asosan o'quvchilarning ijrochilik o'quvchi (ta'limi)ni rivojlantirishga mo'jallangan. O'quvchilarning bunday laboratoriya ishlarini bajarishda kuzatilgan hodisa mohiyatini rasmiylashtirish bo'yicha zaruriy ko'nikma va malaka hodisa bo'ladi, muhimi yana bunda ular olgan nazariy bilimlarini haqiqiy amaliy ahamiyati haqida ishonch xosil qiladilar.

Ikkinchi guruh amaliy-laboratoriya mashg'uloti tadqiqot tavsifida bo'ladi. Mashg'ulotni o'qituvchi o'quvchilarning bilim saviyasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda ular uchun na'molum u yoki bu qonuniyat, yo bo'lmasa biron-bir fizik-mexanik xususiyat, miqdor va hakoza larni topishga mo'ljallab tuzadi.

Bu tipdagi amaliy-laboratoriya mashg'uloti nisbatan jiddiy va murakkab bo'lib, ba'zan laboratoriya qurilmalarini takomillashtirish, qo'shimcha jihozlarni qo'llashlarni hamda oldindan olishi mumkin bo'lgan samaradorlikni o'qituvchining nazariy bashorat qila olishi kabilarni taqozo etadi. Buning uchun o'qituvchi etarli tajriba, pedagogic mahorat, tashabbuskorlik bo'lishi kerak.

Bunday tavsifdagi amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari o'quvchilar bilim va amaliy ko'nikma hamda malakalarning yuqori bo'lishiga olib kelishidan tashqari o'qituvchini ham o'z ustida ishlashga, yangiliklarni izlashga va o'quvchilar bilan mustahkam aloqa o'rnatishga majbur qilib, o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini sezilarli oshiradi.

Laboratoriya mashg'ulotida ishni bajarishda va o'quvchilarning bilimini baholashda ularning barchasini faollik ko'rsatib bir xil bilimga ega bo'ldi deb bo'lmaydi. Ayniqsa laboratoriya ishlarini brigada usulida bajarilganda ular ichidagilardan barcha a'zolari ishda faol ishtirok etadi deb bo'lmaydi. Vaziyatdan kelib chiqib ularning ba'zilar passiv kuzatuvchi bo'lib qatnashadilar. Brigada usulida laboratoriya ishini bajarishning individual ishni bajarish usuliga nisbatan kamchiligi ham shunda, SHunday hollarda nima qilish kerak? Bizningcha bunday holatlarda o'quvchilar bilimini to'g'ri baholashning usuli ularga har bir faoliyati bo'yicha alohida-alohida ballar berib jamlash, yani miqdoriy reyting usulini qo'llash va pog'onali (differensial) baholash qo'l keladi.

O'quvchilarning laboratoriya ishlarini bajarishdagibaholash faoliyati mezonlarini;

1. Nazariy bilimlar saviyasi;
2. Texnika xavsizligi qoidalari;
3. Sxemani oqilona yig'aolishi;

4. Uskuna va jihozlarni to'g'ri va muvofiq tanlay olishi;
5. Sxemadan texnik ma'lumot asosida foydalanishi;
6. Tajribani o'tkazish sifati;
7. Hisoblash aniqligi;
8. Hisobatni rasmiylashtirish;
9. Ishga munosabati;
10. Tajriba mohiyatini bayon qilishlardan iborat deyish mumkin.

Yuqoridagidek laboratoriya ishidan o'quvchilar bilish faoliyatini baholash talab (mezon)lari 10 tadan iborat bo'lganda uning to'liq bajarilishi «2» dan bo'lganda 20 ballni tashkil qiladi va bu 100 foizga teng bo'ladi.

Yuqoridagi talabalar jadvalda quydagicha ifodalanadi (1-jadval).

1-jadval

Asosiy Talabalar tartibi	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	Jami ballar	%
Talabalar Faoliyati bali	2	2	1	2	0	2	1	0	2	2	14	70

Ushbu jadval o'quvchining bilimlarini baholash paytida bevosita o'sha joyning o'zida to'ldiriladi. Yuqoridagi misolda o'quvchining laboratoriya ishini bajarishdan hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalari umumiy holda $B = \frac{14 * 100}{20} = 70\%$ ni tashkil qiladi. Agar bu talabalar 85% va undan yuqori bajarilsa, «5» (a'lo) bahoha; 65÷84% oraliqda bo'lsa «4» (yaxshi) bahoga va talab 45 ÷ 64 % ga bajarilganda «3» (o'rta) bahoga loyiq deyish mumkin.

Bunday o'quvchilar bilimini miqdoriy baholash sxemasidan foydalanishda har bir o'quvchining hisobot daftari 1-jadval sxemasi bo'limi ta'minlanadi. Talabani uning talablariga bergan javobi saviyasiga qarab bevosita sinob muloqati paytida jadvalni to'ldirib berish orali tekshiriladi. Buning uchun taxminan 2-3 minut sarflanadi.

Bunday o'quvchilar bilimini miqdoriy baholashning reyting tizimini amalga oshirish uchun o'qituvchi o'quvchilarni birinchi laboratoriya darsida bu usulning mazmuni, mohiyati va tartib- qoidalari bilan yaxshilab tanishtiradi. Buning uchun kabinetda oldindan tayyorlab ilib qo'yilgan ko'rgazma doskacidagi shunga taalluqli jadval va talablar sxemasidan foydalaniladi. Xisobot daftari 1-jadval har bir o'quvchining qaysi faoliyat talabalarini «to'liq» yoki «qisman» bajarganligi yoki bajarmaganligi o'quvchining o'ziga ham ravshan bo'lib turadi va kelajakda bu kuzatilgan nuqsonlarni bartaraf qilishi uchun harakat qilishda muhim turtki vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu o'z navbatida o'qituvchining har qaysi o'quvchiga qaysi

faoliyatini birinchi navbatda yaxshilashi zarurligiga oid to'g'ri maslahatlar berishga ham katta imkoniyat yaratadi.

Yuqorida keltirilganlar asosida laboratoriya mashg'ulotlarida ko'zda tutilgan amaliy bilim, ko'nikma va malakani, vaziyat, hamda didaktik imkoniyatlardan kelib chiqib, shunday hulosaga kelish mumkin.

O'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida va oldindan tayyorlangan reja bo'yicha tajribalar o'tqazadilar va shu jarayonda yangi bilimlarni qabul qiladilar va anglab yetadilar.

Uslubning asosiy vazifalari – o'rgatish va rivojlantirish bo'lib, o'quvchilarning:

- o'quvchilarning jihozlar bilan ishlashi ko'nikma va malakalarni taminlash;
- ma'lum bo'lganlarini tekshirishi va mustaqil tadqiqot yo'llarini tanlash;
- amaliy malakalarni egallash: o'lchash va hisoblash: natijalarni qayta ishlash va

avvalgisi bilan solishtirish imkoniyatlarini taminlaydi.

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, laboratoriya usulida o'quvchilar faoliyatini baholash uslubi ancha murakkabdir. Bu uslub, ba'zan qimmatli jihozlarning bo'lishi, o'quvchilarning puxta tayyorgarligini talab qiladi. Undan foydalanish katta kuch va vaqt sarflashga bog'liq. Shu ma'noda tajriba usulini rejalashtirilgan avval, o'quvchilar bilimini baholashga boshqa saddaroq, tejamliroq uslub va usullar bilan erishish mumkinligini ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.V. Golish, D.M. Fayzullaeva. Pedagogik texnologiyalarni loyhalashtirish va rejalashtirish. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent, "Iqtisodiyot" nashriyoti. 2010-yil.
2. O'quv mashg'ulotlarida innovatsion ta'lim texnologiyalarni loyhalashtirish, rejalashtirish va ularni amalga oshirish". Seminar-trening materiallari. Samarqand-2012-yil. 91-98 bet
3. Тагаев Х . Критерии оценки качества системы профессиональной подготовки специалистов. Международной конференции. Г. Линск 2-3 октября 2008г, с. 93-194
4. Saidaxmedov .I.C. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash namunalarini. Toshkent, RTM, 2000-y
5. "Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusidagi seminar-trening materiallari-toshkent, 2002-yil.